

«SavingId»

**SONLI JAMG‘ARMA HISOBVARAQ
(TALAB QILIB OLINGUNCHА DEPOZIT)
BO‘YICHA SHARTNOMA**

Toshkent sh.

«Date»

“TBC Bank” ATB, bundan buyon “Bank” deb ataluvchi, nomidan Ustav asosida faoliyat yurituvchi «DisbursementResponsiblePerson», bir tomondan va «FullName» keying o‘rinlarda ”Mijoz” deb ataluvchilar, birgalikda “Tomonlar” deb nomlanib, ushbu Shartnomani (bundan buyon “Shartnoma” deb nomlanuvchi) quyidagilar haqida tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

- 1.1. Jamg‘arma hisobvaraqt (Talab qilib olinguncha depozit) bo‘yicha shartnoma (bundan buyon - Shartnoma) Mijozning “TBC Bank” ATB mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etishning Bosh Shartlarini qabul qilishi (bundan buyon – Bosh shartlar), ushbu Shartnoma shartlari va bank hisobvaraqlarini ochishga doir Ariza/So‘rovni imzolashi/qabul qilishi, ularga xizmat ko‘rsatishi va boshqa bank xizmatlarini va mahsulotlarini (bundan buyon - Ariza/So‘rov)ni qabul qilishi sharti bilan tuziladi. Qabul qilish Mijozga talab qilib olinguncha depozitni masofadan ochish (Bank uni ochish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni olgan holda) va unga Mijozning pul mablag‘larini unga qo‘yilishini anglatadi. Pul mablag‘lari Talab qilib olinguncha depozitga kirim qilingan sanadan boshlab Jamg‘arma hisobvaraqt bo‘yicha shartnoma tuzilgan hisoblanadi.
- 1.2. Ushbu Shartnoma Bosh shartlar va Ariza/So‘rovning ajralmas qismi hisoblanadi.
- 1.3. Ushbu Shartnomada qo‘llanilgan atama va ta’riflar Bosh shartlarda ko‘rsatilgan.

2. SHARTLAR, PUL MABLAG‘LARNI JOYLASHTIRISH VA QAYTARISH

- 2.1. Mijoz pul mablag‘larini kiritadi va Bank Mijozi dan masofaviy bank xizmati tizimidan foydalangan holda Jamg‘arma hisobvaraqt bo‘yicha shartnoma shartlariga ko‘ra qabul qiladi va pul mablag‘lari hamda hisoblangan foizlar summasini mazkur Jamg‘arma hisobvaraqt bo‘yicha shartnomada nazarda tutilgan tartibda va shartlarda qaytarish majburiyatini oladi.

2.2. Jamg‘arma hisobvaraqt bo‘yicha shartnomaning shartlari:

- 2.2.1. Foiz stavkasi: www.tbcbank.uz rasmiy veb-saytida joylashtirilgan Bank tariflariga muvofiq;

- 2.2.2. Muddati: cheklanmagan;
 - 2.2.3. Qo'shimcha badallar kiritish: ko'zda tutilgan, summasi bo'yicha cheklovlar mavjud emas;
 - 2.2.4. Mablag'larni qisman yechib olish, shuningdek, hisobvaraqlari to'liq yopish: istalga vaqtida amalga oshirish mumkin, quyidagi holatlar bundan mustasno:
 - agar operatsiyalar amalga oshirish jarayoni ishtirokchilaridan birida texnik sabablarga ko'ra masofaviy bank xizmatlari tizimi vaqtincha ishlamayotgan bo'lsa;
 - operatsion kunning yopilish jarayonida.
 - 2.2.5. Foizlar kapitallashuvi har oyda, har oyning oxirida hisoblangan foizlarni Mijozning talab qilib olinguncha hisobvarag'iga avtomat ravishda o'tkazish orqali amalga oshiriladi.
 - 2.2.6. Jamg'arma hisobvaraqlari bo'yicha foizlarni hisoblash www.tbcbank.uz rasmiy veb-saytida joylashtirilgan Bank tariflariga ko'ra amalga oshiriladi.
- 2.3. Mazkur Shartnomani masofaviy bank xizmati tizimi yordamida qabul qilish orqali, Mijoz Bank tomonidan taklif qilinadigan ushbu Bank mahsuloti bo'yicha tarif va shartlarga o'z roziligini bildiradi.
- 2.4. Jamg'arma hisobvarag'iga pul mablag'larini faqat naqdsiz ko'rinishda, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligidagi nazarda tutilgan usullar bilan amalga oshiriladi.
- 2.5. Jamg'arma hisobvarag'ini pul mablag'i bilan to'ldirish uchun kelib tushgan mablag'lar ular kelib tushgan kundan keyingi sanadan kechiktirmay kirim qilinadi.
- 2.6. Mijozning xohishiga ko'ra Jamg'arma hisobvarag'idan to'liq yoki qisman pul mablag'larining yechib olinishi keyingi ish kunidan kechikmagan holda, Bankda ochilgan har qanday hisobvarag'iga yoki Bank tomonidan chiqarilgan bank kartasiga yoki virtual kartaga faqat naqd pulsiz shaklda pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.
- 2.7. Mijozning xohishiga ko'ra Jamg'arma hisobvarag'i barcha mablag'larni Mijozning Bankda ochilgan joriy hisobvarag'iga yoki "TBC Bank" ATB tomonidan chiqarilgan bank kartasiga o'tkazish orqali istalga vaqtida yopilishi mumkin.
- 2.8. O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi talablariga muvofiq soliq rezidenti maqomiga ega bo'lмаган O'zbekiston Respublikasining Omonatchi-norezidentlaridan Bank istalga hisobvaraqlardan akseptsiz tartibda to'langan foizlar (daromadlar) summasidan keyinchalik budjetga o'tkazgan holda, to'lovlardan manbaida soliqni ushlab qoladi.
- 2.9. Jamg'arma hisobvarag'ini ochish va unga xizmat ko'rsatish, shuningdek, operatsiyalarni amalga oshirish uchun Bank tariflarida belgilanadigan hajm va tartibda komissiya miqdorini undirishi mumkin.

3. HISOB-KITOBLAR VA FOIZ TO'LOVLARI

- 3.1. Jamg‘arma hisobvarag‘i bo‘yicha foizlarni hisoblash pul mablag‘lari kirim qilingan sanadan keyingi kundan boshlab, Jamg‘arma hisobvarag‘idan boshqa sabablarga ko‘ra pul mablag‘lari yechib olingunga qadar hisoblanadi.
- 3.2. Foizlarni to‘lash: Ushbu turdagи omonat uchun Bankning Tariflariga ko‘ra.
- 3.3. Jamg‘arma hisobvaraq bo‘yicha foiz stavkasining o‘zgarishi bilan bog‘liq Tariflarga kiritiladigan o‘zgarishlar to‘g‘risida Mijoz Bankning www.tbcbank.uz veb-saytida bank mobil ilovasida va/yoki “TBC Bank” ATB xizmat ko‘rsatish ofislarida o‘zgarishlar to‘g‘risida ma’lumotlarni joylashtirish yo‘li bilan 10 kalendar kunidan kam bo‘lmagan muddat ichida xabardor qilinadi. 10 kalendar kunidan keyin foiz stavkasi bo‘yicha Tariflarga kiritilgan o‘zgarishlar yangi tahrirda foydalaniladi.
- 3.4. Agar Mijoz Jamg‘arma hisobvaraq bo‘yicha foiz stavkalarga kiritilgan Tarif o‘zgarishlari bilan rozi bo‘lmasa, amaldagi qonunchilikka ko‘ra barcha pul mablag‘lari va hisoblangan foizlarni talab qilishga hamda Jamg‘arma hisobvarag‘ini yopishga haqli.
- 3.5. “Tijorat banklarida foizlarni hisoblash tartibi to‘g‘risidagi” Nizomga (29.09.2023 yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 3460) muvofiq asos sifatida mijozning hisobraqamida omonat turgan kalendar kunlari hisobga olinadi. Shuningdek, yillik hisob kunlari sifatida 365 kun qo‘llaniladi.
- 3.6. Jamg‘arma hisobvarag‘iga qabul qilingan mablag‘larning qaytarilishi 2002 yil 04 fevraldagи O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoya qilish kafolatlari to‘g‘risida”gi 360-II-son Qonuniga asosan fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi banklardagi omonatlarini kafolatlash jamg‘armasi tomonidan kafolatlanadi.

4. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. Mijoz huquqlari:

- 4.1.1. Bankning ushbu turdagи omonatlar bo‘yicha tariflariga muvofiq maksimal miqdordagi Jamg‘arma hisobvaraqlar ochish;
- 4.1.2. Masofaviy bank xizmati tizimi orqali Bankdan Omonat/Jamg‘arma hisobvarag‘ining to‘liq yoki qisman berilishini talab qilish;
- 4.1.3. Agar Jamg‘arma hisobvarag‘i bo‘yicha shartnomada bunday imkoniyat belgilangan bo‘lsa, masofaviy bank xizmati tizimi orqali qo‘srimcha pul mablag‘larini Jamg‘arma hisobvarag‘iga kiritish;
- 4.1.4. Ushbu shartnomada belgilangan shartlar va tariflar bo‘yicha bir nechta Jamg‘arma hisobvaraqlarini ochish:
 - masofaviy xizmat kanallari orqali;
 - Bank bo‘linmalarining ish soatlarida Bank filiallarida o‘rnatilgan o‘ziga o‘zi xizmat ko‘rsatish vositalaridan foydalanish orqali.

4.2. Mijoz majburiyatllari:

- 4.2.1. Jamg‘arma hisobvarag‘i bo‘yicha shartnomaga shartlari bilan tanishish;

- 4.2.2. Hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining va boshqa vakolatli organlarning qarorlariga qat'iy muvofiq ravishda amalga oshirish. Mijoz hisobvaraqlar ochish, hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni bajarish uchun taqdim etilgan hujjatlar va ma'lumotlarning to'g'riliqi uchun javobgardir;
- 4.2.3. Hisobvaraqlarga noto'g'ri kirim qilingan va/yoki hisobvaraqlardan noto'g'ri yechib olingan mablag'lar aniqlangan taqdirda, darhol Bankni bu haqda maqbul usulda xabardor qilish;
- 4.2.4. 3 kalendar kun ichida Bosh shartlarda belgilangan aloqa kanallari orqali mazkur Shartnomaning bajarilishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan yashash manziliga va/yoki telefon raqamiga, shu jumladan mobil telefon, familiya, ismi-sharifi o'zgarganligi, shaxsini tasdiqlovchi hujjat yoki boshqa hujjatlar almashtirilganligi to'g'risida Bankni xabardor qilish;

4.3. Bank huquqlari:

- 4.3.1. Mijozning e'tirozidan qat'iy nazar tegishli davlat organlaridan ijro hujjatlari olingan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda choralar ko'rish (pul mablag'larini xatlash, pul mablag'larni akseptsiz hisobdan chiqarish, hisobvaraqt bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib qo'yish va boshqalar), shuningdek, Jamg'arma hisobvaraqt bo'yicha pullarni xatolik bilan qabul qilish holati aniqlanganda Jamg'arma hisobvarag'i bo'yicha hisoblangan va to'langan mukofotni qaytarish;
- 4.3.2. Bankning yangiliklarini, shuningdek, Mijozning Jamg'arma hisobvarag'idan amalga oshirilgan operatsiyalar haqidagi ma'lumotni ushbu shartnomaga va arizada ko'rsatilgan Mijozning mobil telefon raqamiga SMS xabarlar yoki elektron pochta manziliga xabarlarlar yuborish;
- 4.3.3. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish uchun Bank Mijozdan Jamg'arma hisobvarag'i orqali amalga oshirilgan operatsiyalarning qonuniyligini tasdiqlovchi ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim etishini talab qilishga haqlidir;
- 4.3.4. Jamg'arma hisobvarag'i bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalarni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda to'xtatib qo'yish yoki amalga oshirishda rad etish.

4.4. Bank majburiyatları:

- 4.4.1. Mijozning xohishiga ko'ra debet kartaga yoki Mijozning Bankda ochilgan joriy hisobvarag'iga Jamg'arma hisobvarag'idan va hisoblangan foizlarni qaytarish faqat naqdsiz shaklda amalga oshiriladi.

4.4.2. Hisobvaraqlardagi butunligini va daxlsizligini ta'minlash. Hisobvaraqlardagi mablag'larni xatlash yoki hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish faqat O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi nazarda utilgan hollardagina amalga oshiriladi.

5. BANK SIRI

5.1. Bank O'zbekiston Respublikasining "Bank siri to'g'risida"gi qonuniga, Bosh shartlarga va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjaligiga muvofiq ma'lumotlarning maxfiyligini va bank sirini tashkil etuvchi mijozlarning ma'lumotlarini butunligini kafolatlaydi.

5.2. Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar Mijoz yoki uning vakili tomonidan uning murojatiga ko'ra (yozma yoki elektron shaklda) Bank tomonidan taqdim etilishi mumkin.

5.3. Mijozning Bank siri hisoblangan ma'lumotlari uchinchi shaxslarga O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi belgilangan tartibda taqdim etiladi.

6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Tomonlar o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun Bosh shartlar va ushbu Shartnomaning shartlariga rioya etmagan Tomon O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi belgilangan tartibda javobgar hisoblanadi.

7. ALOHIDA SHARTLAR

7.1. Bank tomonidan qabul qilingan shahsga doir ma'lumotlar quyidagi maqsadlarda foydalaniadi va ulardan foydalanishi mumkin:

7.1.1. Shartnomani tuzishda va uni bajarishda foya oluvchi yoki manfaatdor tomon Mijoz hisoblanganda;

7.1.2. Mijozning huquq va majburiyatlarini lozim darajada bajarilishini ta'minlashda;

7.1.3. Ma'lumotlarni tekshirish, shu jumladan sohta operatsiyalarni oldini olish maqsadida;

7.1.4. Shartnomalar bajarilishi bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni Mijozga ma'lum qilish, shuningdek, uchinchi tomonning birgalikda joriy etilayotgan dasturlarida (sodiqlik dasturlarida) ishtirok etadigan uchinchi shahslar haqidagi ma'lumotlardan xabardor qilish;

7.1.5. Sug'urta, pochta tashkilotlari, aloqa tashkilotlariga taqdim etish;

- 7.1.6. Bank tomonidan statistik va / yoki marketing tadqiqotlarini o‘tkazish va / yoki Mijozga Bank va sheriklarining yangi mahsulotlari/ xizmatlari haqida ma’lumot berishda.
- 7.1.7. Boshqa davlat tashkilotlariga, shuningdek, jismoniy shaxslarga muddati o‘tgan qarzdarliklarni undirish maqsadida taqdim etish.
- 7.2. Jamg‘arma hisobvarag‘idagi pul mablag‘larini Mijoz o‘z xohishiga ko‘ra mustaqil ravishda boshqaradi, Bosh shartlar, amaldagi qonun hujjatlari va Shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.
- 7.3. Bank Mijozning mablag‘laridan foydalanish shaklini belgilash va nazorat qilish, shuningdek, Mijozning pul mablag‘larini sarflash va tasarruf etish huquqlarini cheklash huquqiga ega emas.
- 7.4. Shartnomada ko‘zda tutilmagan Bank va Mijozning o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar Bosh shartlar va O‘zbekiston Republikasining amaldagi qonunchiligi talablariga muvofiq tartibga solinadi.
- 7.5. Tomonlar uchun Mijozning hisobvarag‘i bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ-huquqiy hujjatlari bilan belgilanadi va ikkala tomon uchun ham majburiydir.

8. SHARTNOMANI YOPISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

- 8.1. Jamg‘arma hisobvarag‘i qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda masofaviy bank xizmatlari orqali, shuningdek, Bank xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq (Mijozga Jamg‘arma hisobvarag‘idan summani va bunday shartnoma shartlariga muvofiq hisoblangan foizlarni qaytarish va Jamg‘arma hisobvarag‘ini yopish sharti bilan) Bank oldidagi barcha mavjud qarzdarliklar so‘ndirilganda yopilishi va shartnoma belgilangan tartibda bekor qilinishi mumkin.
- 8.2. Jamg‘arma hisobvarag‘ini yopilishiga masofaviy bank xizmati tizimi orqali Mijozning o‘z istak-xohishiga ko‘ra yoki O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Jamg‘arma hisobvarag‘i bo‘yicha shartnomaning bekor qilinishi asos bo‘ladi.
- 8.3. Shartnoma qabul qilingan vaqtidan boshlab kuchga kiradi, noma’lum muddatga tuziladi, shuningdek, Mijoz tomonidan istalgan vaqtida yoki Bankning so‘roviga ko‘ra sud orqali Mijoz tomonidan qabul qilingan shartnoma majburiyatlarini bajarmaganligi sabab yoki O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi nazarda tutilgan boshqa holatlarda uning bekor qilinishiga qadar amal qiladi.
- 8.4. Mijoz ushbu Shartnomaning 3.2-bandida ko‘rsatilgan Tariflarga, ya’ni talab qilib olinguncha depozit hisobvaraq bo‘yicha foiz stavkasining o‘zgarishi borasida kiritiladigan o‘zgarishlarga rozi bo‘lmagan taqdirda, Mijozning Bankka masofaviy aloqa kanallari orqali kelib tushgan norozilik va/yoki rad etish Jamg‘arma hisobvarag‘ini yopish bo‘yicha arizaga tenglashtiriladi va bu Bankka Jamg‘arma hisobvarag‘ini yopish huquqini beradi.
- 8.5. Ushbu Shartnomaga kiritilgan barcha o‘zgarish va qo‘srimchalar Bosh shartlarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.